

JURNALISTIK MAHORAT: NAZARIY TAVSIFI, TALQINI VA EVOLYUTSIYASI

Seitnazarova Guljahan Suxanatdinovna,
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD
e-mail: guli_09.92@list.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada «jurnalistik mahorat» tushunchasining asl mazmun-mohiyati va uning asosiy qismlari oddiy va tushunarli tilda tahlil qilingan. Tadqiqotda jurnalist ustakorligi faqat chiroyli matn yozishdan iborat emasligi, balki u har tomonlama chuqur bilim, zamonaviy texnik ko'nikmalar va kasbiy mas'uliyat (etika) birlashmasi ekanligi ko'rsatib berilgan. Maqolada bugungi shiddatli axborot zamonida haqiqiy jurnalistik mahorat qanday xususiyatlarga ega bo'lishi va uning qanday o'zgarib borayotgani sodda tarzda tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: jurnalistik mahorat, mohir, moharli, jurnalistik kompetensiyalar, mahorat kategoriyasi, zamonaviy jurnalist, kasbiy etika, mahorat formulasi.

Аннотация. В данной статье в простой и понятной форме анализируются истинная суть и основные составляющие понятия «журналистское мастерство». В исследовании показано, что мастерство журналиста заключается не только в написании красивых текстов, а представляет собой сочетание глубоких знаний, современных технических навыков и профессиональной ответственности (этики). В статье в доступной форме описывается, какими качествами должно обладать настоящее журналистское мастерство в современную эпоху стремительного развития информации и как оно меняется.

Ключевые слова: журналистское мастерство, мастер, искусный, журналистские компетенции, категория мастерства, современный журналист, профессиональная этика, формула мастерства.

Abstract. This article analyzes the true essence and main components of the concept of "journalistic mastery" (skill) in a simple and understandable language. The research demonstrates that journalistic skill is not just about writing beautiful texts, but rather a combination of comprehensive knowledge, modern technical skills, and professional responsibility (ethics). The article describes in a straightforward way the essential qualities that true journalistic mastery must possess in today's fast-paced information age and how it is changing.

Keywords: journalistic skill, master, skillful, journalistic competencies, category of mastery, modern journalist, professional ethics, formula of mastery.

Kirish va dolzarbliqi. Ijod jarayonida muallifning jamiyatdagi o'rni va obro'si qalamiga olgan mavzuining dolzarbliqi, faktlarning teran tahlili va uning auditoriyaga ta'siri hamda kasbiy mahorati bilan belgilanadi. «Mohir», «mahoratli» kabi so'zlar ko'pchilikka nisbatan qo'llaniladigan ta'rif emas. Bunga erishish uchun teran bilim, mehnat, izlanish va tajriba zarur. Ayrim ijodkorlarda «ustoz-shogird» va «mahorat maktabi» kabi yaxshi an'analar yo'lga qo'yilgan bo'lib, o'zining ijodiy maktabiga va yozish uslubiga ega ijodkorlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bugun ularni o'rganish, tadqiq etish – dolzarb masalalardan biri.

«Mahorat» tushunchasi insoniyat bilimining ilmiy, madaniy va tarixiy kontekstida «arxetipik» va keng tarqalgan bo'lishiga qaramay, uning kategorial tushuncha sifatidagi ta'rifini topish nihoyatda mushkul.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Zamonaviy falsafiy antropologiya va praktsiologiyada «mahorat» tushunchasi ko'p hollarda amaliy ko'nikma sifatida tor

ma'noda talqin etiladi. Biroq ijtimoiy bifurkatsiya (inqiroz va keskin o'zgarishlar) davrida mahorat ijtimoiy barqarorlikning yagona kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Mahoratni kategorial tushuncha sifatida belgilash uning nafaqat texnik, balki ontologik mohiyatini ochishga imkon beradi.

Mahorat kategoriya sifatida. Agar kategoriyalarni tushunchalarning sintezi, tahlili va umumlashtirilishining yakuniy mahsuli deb hisoblasak, unda mahorat - «bilim», «ko'nikma» (yaratish yoki tartibga solish) yoki predmet va jarayonni «egallash» tushunchalarining chegaraviy ifodasidir. Bunda u maksimal «namoyon bo'lish»ga intilayotgan imkoniyat va ushbu namoyon bo'lishning amalga oshganligini bildiruvchi zaruriyat o'rtasidagi muvozanat nuqtasida turadi.

Zamonaviy media muhitda «mahorat» tushunchasi ko'pincha «kompetentlik» yoki «texnik ko'nikma» bilan almashtirilmoqda. Biroq, ijtimoiy bifurkatsiya va axborot xurujlari davrida jurnalist mahorati jamiyatni barqarorlashtiruvchi asosiy omilga aylanadi. Mahorat — bu jurnalistning fakt va voqelikni nafaqat aks ettirishi, balki uning mohiyatini anglab, jamiyatga «tartibga solingan» holda taqdim etish san'atidir.

Mahorat – bu shuningdek, ijod sifati, mavjud borliq modellari ichidagi «oltin o'rtalik»dir. U ham ratsional (sifatga oid), ham transtsendent tabiatga ega:

Ratsional jihat: Insonning predmet yoki jarayonni ilmiy bilimlar asosida to'liq egallashi. Bu yerda mahorat – yuqori sifatli faoliyat algoritmidir. Bu jihat jurnalistikada janrlar tizimini bilish, til imkoniyatlaridan foydalanish, ma'lumot to'plash va tekshirish (fact-checking) texnologiyalari bilan belgilanadi.

Transtsendent jihat: Bilish chegarasidan tashqaridagi «ilohiy» yoki «tabiiy» mukammallik. Bilim doirasi kengaygan sari, mahoratning bu qismi ratsional sohaga o'tib boradi. Bu jarayonda jurnalistdan voqealar zamiridagi yashirin ma'nolarni ilg'ash, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy imperativ talab qilinadi. Bu yerda mahorat – muallifning dunyoqarashi va ma'naviy pozitsiyasi bilan bog'lanadi.

Evolyutsion nuqtai nazardan mahorat – biologik tizimlarning yashab qolish va o'z-o'zini qayta tiklash qobiliyatidir. Genetik kod (RNK va DNK) mahoratning ilk axborot tashuvchisi sifatida ko'rilishi mumkin. Bu yerda mahorat murakkab biologik jarayonlarni xatosiz takrorlash «ustaligi»dir.

Mahoratning mukammallik darajasi (dunyoning yaratilishida) sifatidagi fakti shubhasizdir. O'z-o'zini anglovchi individning o'z-o'zini namoyon qilish maqsadi (aniqrog'i, vektori) - «hayot mahorati»ni anglash va uni egallashdir. Bu maqsad biologik va informatsion jihatdan shartlangan bo'lib, u hayot oqimining shunchaki davomidir[1].

Mahoratning «transtsendent»dan «ratsional»ga aylanishi anglovchi individ tomonidan biologik tizimlar borlig'ini anglashi bilan chambarchas bog'liq. Biosistemalar inson qabul qilishi, o'rganishi va qonuniyatlarini tushunishi uchun eng qulay bo'lgan murakkab tizimlar darajasidir. Ushbu bilimlar bilish sub'ekti tomonidan hayotiy jarayonlarni optimallashtirish va ularni boshqarishda qo'llaniladi

«Mahorat» tushunchasi nafaqat jurnalistikada, balki umumiy lug'atshunoslikda ham keng qamrovli ma'nolarga ega. Turli tillardagi nufuzli lug'atlarda bu atama bilimning amaliyotga ko'chishi va kasbiy yetuklik sifatida talqin qilinadi.

Jumladan, O'zbekistondagi eng asosiy leksikografik manba «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «mahorat» so'z arabcha «mahara» so'zidan olingan bo'lib, lug'atda [a. – ustalik, epchillik] ikki xil ma'noda keladi: «Biror ish-hunarda, san'atda erishilgan yuksak daraja; ustalik, epchillik. Ikkinchi ma'nosi, ijodiy ishda, ilm-fanda ko'zga ko'rinarli darajadagi muvaffaqiyat va qobiliyat»[2].

S.I. Ojegovning «Rus tilining izohli lug'ati» mahorat («masterstvo») tushunchasi professionalizmning eng yuqori nuqtasi sifatida ta'riflanadi: «Masterstvo – 1. Kasbiy sohada erishilgan yuksak san'at darajasi. 2. Ustaning hunari (masalan, zargarlik mahorati)»[3]. Bu yerda «san'at» so'zi faqat nafosat ma'nosida emas, balki ishni sifatli bajarishning eng yuqori nuqtasi ma'nosida keladi.

«Novaya filosofskaya entsiklopediya»sida mahorat ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan talqin qilinadi. Xususan, «mahorat – shaxsning muayyan faoliyat turi bo'yicha eng yuqori sifat ko'rsatkichlariga erishish imkonini beruvchi psixologik va kasbiy xislatlari majmui. U bilim, malaka va ko'nikmalarning shaxsiy ijodiy qobiliyat bilan sintezini anglatadi»[4].

G'arb ilmiy maktabida «Mastery» tushunchasi quyidagicha beriladi: «1. Possession or display of great skill or technique. 2. Skill or knowledge that makes one master of a subject. (Biror sohani boshqarish imkonini beruvchi yuksak texnika yoki bilimga egalik)»[5]. Shuningdek, Oksford ingliz tili lug'atida (Oxford English Dictionary) «Mastery» yoki «Skill» terminlari ishlatilishi keltirilgan. Bunda, ««mastery» - biror sohani mukammal egallash, keng bilimga ega bo'lish va nazorat qila olish qobiliyati; «skill» bolsa, ma'lum bir vazifani bajarishda mashq va ta'lim natijasida orttirilgan qobiliyat»[6] degan ma'nolarini bildiradi.

Jurnalistikada «mahorat» - bu shunchaki matn yozish emas, balki voqelikni kontseptual idrok etish va uni ijtimoiy-siyosiy maqsadlar yo'lida qayta ishlash qobiliyatidir. Mahorat kategoriyasi jurnalistikani «hunarmandchilik»dan (shunchaki xabar uzatish) yuqoriroqqa – ijtimoiy muhandislik va ma'naviy ijod darajasiga olib chiqadi.

Tadqiqot natijalari. Zamonaviy jurnalistikada «mahorat» tushunchasi keng semantik maydonni qamrab oladi va uning mazmun-mohiyatini aniqlash ko'plab ilmiy tadqiqotlarning markaziy masalasiga aylanib kelmoqda. Ushbu tushuncha turli ilmiy maktablar, nazariy yo'nalishlar va metodologik yondashuvlar kesishmasida shakllangan bo'lib, uning tadqiqi jurnalistika, psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarining sinteziga asoslanadi.

Jurnalistik mahorat fenomenining o'rganilish tarixi XIX asr oxiri – XX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlabki nazariy urinishlar asosan amaliy tabiatga ega bo'lib, jurnalistning kasbiy faoliyatini «san'at» yoki «hunar» sifatida baholashga moyil edi. Jumladan, Uillard

Bleyerning 1913 yilda chop etilgan mashhur «Newspaper writing and editing» asarida jurnalistik mahorat, kasbiy etika va matn ustida ishlash san'ati haqida batafsil to'xtalib o'tgan. Olim Amerika jurnalistika ta'limining asoschilaridan biri hisoblanadi va ushbu kitob o'z davrining eng nufuzli qo'llanmalaridan biri bo'lgan.

Tadqiqotchi jurnalistning mahoratini faqatgina «chiroyli yozish» emas, balki quyidagi mezonlar orqali belgilagan:

Birinchidan, aniqlik va ixchamlik ya'ni, muallif mahoratning asosi faktlarni to'g'ri yetkazish va ortiqcha so'zlardan qochishda ekanini ta'kidlaydi. U «birinchi xatboshi»ni yozish san'atini jurnalistik mahoratning eng muhim elementi deb hisoblaydi.

Ikkinchidan, yangilik qiymatini belgilash – mahoratli jurnalist voqea ichidan jamiyat uchun eng qiziqarli va muhim nuqtani topa olishi kerak.

Uchinchidan, Bleyer jurnalistning tili sodda, lekin ta'sirchan bo'lishi lozimligini yozadi. U gazeta stilini adabiy tildan farqli, tez o'qiladigan va tushunarli format sifatida shakllantirishni taklif qilgan.

To'rtinchidan, uning fikricha, mahorat faqat texnik ko'nikma emas, balki ijtimoiy mas'uliyatni his qilishdir. Jurnalist jamoatchilik oldidagi burchini bajargandagina haqiqiy mahorat egasi hisoblanadi[7].

Ayniqsa, kitobning «The News Story» (yangilik material) va «News Values» (yangilik qiymatlari) boblarida tadqiqotchi professional jurnalist qanday qilib «xom ashyodan» (faktlardan) sifatli media mahsulot yaratishi kerakligini bosqichma-bosqich ko'rsatib bergan. Ushbu manba jurnalistika nazariyasida «mahorat» tushunchasining akademik asoslarini o'rganishda fundamental ahamiyatga ega.

Shuningdek, Uolter Uilbyams va Frenk Martin tomonidan 1911 yilda yozilgan va 1914 yilda keng tarqalgan «The Practice of Journalism: A Treatise on Newspaper Making»[8] asari jurnalistik mahorat nazariyasida muhim bosqich hisoblanadi. Olim dunyodagi birinchi jurnalistika maktabi (Missuri universiteti) asoschisi sifatida mahoratni nafaqat texnik ko'nikma, balki intellektual va axloqiy majburiyat sifatida talqin qilgan.

U mahoratning birinchi sharti – bu «jurnalistning o'z kasbiga bo'lgan e'tiqodi», deya ta'kidlaydi. U mahoratni shunchaki matn yozish emas, balki «jamoatchilik ishonchiga loyiq bo'lish san'ati» deb biladi. Agar jurnalistda axloqiy asos bo'lmasa, uning texnik mahorati jamiyat uchun zararli deb hisoblaydi.

Muallif mahoratning muhim tarkibiy qismi sifatida «yangilikni sezish instinkti»ni ko'rsatadi. Bu g'oyaga ko'ra, mahoratli jurnalist: oddiy voqealar ichidan ijtimoiy ahamiyatga molik faktni ajratib olishi; o'quvchini nima qiziqtirishini oldindan his qilishi lozim.

Uilyams asarning 1914 yilgi nashrda jurnalistning tili bo'yicha quyidagi talablarni qo'yadi: mahorat – murakkab narsani oddiy tilda tushuntirib berishdir; Jurnalist voqeani shunday tasvirlashi kerakki, o'quvchining ko'z oldida aniq manzara gavdalansin. U «ortiqcha sifatlar jurnalistning dushmani» ekanini ta'kidlaydi.

Tadqiqotchilar tomonidan kitobda ilgari surilgan kontseptsiyada jurnalistik mahorat – bu bilim, texnika va vijdonning sintezidir. Ular mahoratni ta'lim orqali shakllantirish mumkin bo'lgan tizimli intizom sifatida fanga olib kirgan. Keyinchalik, ayniqsa XX asr o'rtasidan boshlab, ushbu sohaga nisbatan tizimli-ilmiy yondashuv kuchayib bordi va jurnalistik mahoratni alohida nazariy kategoriya sifatida o'rganishga intilish paydo bo'ldi.

Jurnalistik mahoratning ta'rifi masalasida ilmiy adabiyotda yakdil nuqtai nazar mavjud emas. Bu holat qisman mazkur tushunchaning ko'p qirrali tabiati, qisman esa unga nisbatan turli metodologik yondashuvlar mavjudligidan kelib chiqadi. Umumiy ma'noda jurnalistik mahorat – jurnalistning professional faoliyatini yuqori samarali tarzda amalga oshirish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida tushuniladi[9].

Rossiya jurnalistika maktabida «mahorat» tushunchasi an'anaviy ravishda uch tarkibiy qism orqali ta'riflanadi: birinchidan, nazariy bilimlar majmui; ikkinchidan, amaliy ko'nikmalar tizimi; uchinchidan, ijodiy salohiyat. Ushbu uchlik G.V.Lazutina, S.S.Raspopova kabi olimlar ishlarida rivojlantirilgan bo'lib, unga ko'ra jurnalist mahoratini tarkibiy-funksional nuqtai nazardan o'rganish mumkin[10].

G'arb jurnalistika nazariyasida «professionalizm» va «kompetentlik» tushunchalari keng qo'llaniladi[11]. Indiana universiteti tadqiqotchisi Mark Dyozening «professional jurnalistika mafkurasi» kontsepsiyasi bo'yicha, «jurnalist mahorati faqat texnik-amaliy ko'nikmalardan iborat bo'lmay, balki kasbiy me'yorlar, qadriyatlar va etik printsiplarni o'z ichiga olgan keng mazmunli tuzilmani tashkil etadi»[12]. Shu nuqtai nazardan, jurnalistik mahorat – ob'ektiv-ijtimoiy fenomen sifatida ham, sub'ektiv-individual xususiyat sifatida ham tadqiq etilishi lozim.

Jurnalistik mahoratning tarkibiy tuzilmasini o'rganishda turli tasnif tizimlari ishlab chiqilgan. Ko'pchilik tadqiqotchilar mahoratning uch asosiy qatlamini ajratadi: kognitiv (bilimlar majmui), operatsional (amaliy ko'nikmalar) va aksiologik (kasbiy qadriyatlar va etik normalar) [13].

Kognitiv qatlam nuqtai nazaridan, jurnalistik mahorat, avvalo, voqelikni professional idrok etish, axborotni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatini taqozo etadi. Bu yerda «jurnalistik tafakkur» tushunchasi muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotchilar V.D. Pelt va T.V. Kuznetsovalar ta'kidlaganidek, «jurnalistik tafakkur - ijtimoiy hayotning u yoki bu jihatiga oid tezkor, analitik va obrazli xulosalar chiqarish qobiliyatidir»[14]. Ushbu tafakkur turi umumiy mantiqiy tafakkurdan shunda farq qiladiki, u ommaviy auditoriya uchun mo'ljallangan kommunikativ vazifani hamisha hisobga oladi.

Operatsional qatlam jihatidan qaraganda, jurnalistik mahorat janriy-uslubiy, til-nutq va texnik-texnologik ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalar majmuidagi janrni tanlash va unda ishlash mahorati, material yaratish va tahrir qilish texnikasi, matn strukturasi qurish usullari alohida o'rin tutadi[15]. Shuni diqqatga sazovorki, raqamlashuv davrida operatsional mahoratning texnik-texnologik tarkibiy qismi tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda.

Aksiologik qatlam, ya'ni jurnalistik mahoratning qadriyatiy-etik o'lchami masalasi tadqiqotchilar orasida keng muhokama ob'ektiga aylangan. Bir qator olimlar ushbu o'lchamni mahoratning tarkibiy qismi sifatida emas, balki uning tashqi sharti sifatida ko'radi. Boshqalari esa etik kompetentlikni mahoratning ajralmas ichki elementi deb hisoblaydi. Dissertatsiyamiz doirasida biz ikkinchi nuqtai nazarni asosli deb topamiz, zero etik me'yorlarsiz jurnalist faoliyatini «mahorat» sifatida baholash mushkul.

Zamonaviy pedagogika va kasb ta'limi nazariyasida keng tarqalgan «kompetentlik yondashuvi» jurnalistik mahoratni tushunishda yangi imkoniyatlar ochadi. Ushbu yondashuv doirasida mahorat «kompetentsiya» tushunchasi orqali operatsionallashtiriladi. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, «jurnalistik kompetentsiya – professional faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va shaxsiy xususiyatlarning integrativ birligi sanaladi».

Yevropa Jurnalistika Ta'limi Assotsiatsiyasi (EJTA) tomonidan ishlab chiqilgan «Tartu deklaratsiyasi» jurnalist kompetentsiyalarini uch yo'nalish bo'yicha ajratishni taklif etadi: jurnalistik rolb tushunchasi, jamiyat va media haqidagi bilim, va jurnalistik ko'nikmalar. Ushbu tasnifning ahamiyati shundaki, u mahoratni statik holat sifatida emas, balki dinamik rivojlanayotgan jarayon sifatida ko'radi.

O'zbekiston jurnalistika ta'limi sohasidagi tadqiqotlarda ham kompetentlik yondashuvi borgan sari kengroq joy egallamoqda (Toshmatov, 2015; Norqo'ziev, 2018; Xasanov, 2020). Ushbu ishlarda milliy kontekstga xos xususiyatlar inobatga olingan holda jurnalist kompetentsiyalarining o'ziga xos tizimi shakllantirilgan. Ayniqsa, madaniyatlararo kommunikatsiya, ko'p tillilik sharoitida jurnalistik ijod, adabiy tili uslubiyotiga doir kompetentsiyalar alohida ta'kidlangan.

Xulosalar. Jurnalistik mahorat tushunchasini to'liq anglash uchun uning tarixiy evolyutsiyasini kuzatish zarur. Matbuotning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda shakllangan dastlabki «mahorat» talablari asosan til ustidagi ishga — matnni aniq, tushunarli va jozibali yozishga qaratilgan edi. Bu davrda jurnalistik mahorat ko'proq adabiy-publitsistik mahorat bilan tenglashtirilar edi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yangilik jurnalistikasining rivojlanishi bilan bog'liq holda mahoratning yangi qirralari yuzaga chiqdi: «tezkorlik, aniqlik, ob'ektivlik, voqealarni o'z vaqtida aks ettirish». Amerika jurnalistika maktabida «to'ng'arilgan ehrom» printsipli jurnalistik mahoratning amaliy ifodasi sifatida keng tarqaldi. Radio va televizია paydo bo'lishi esa mahoratning yangi mediaspetsifik ko'rinishlarini – nutq texnikasi, vizual ifoda, montaj mahoratini – vujudga keltirdi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi jurnalistik mahoratni tubdan yangiladi. Pol Bredshou taklif etgan «BASIC» modeli (Brevity, Adaptability, Scannability, Interactivity, Community) raqamli muhitda jurnalist mahoratiga yangicha yondashuvni ifoda etadi. Ushbu modelda jurnalistning texnologik

savodxonligi, multiplatformali kontent yaratish qobiliyati va auditoriya bilan interaktiv muloqot olib borish ko'nikmasi ustuvor o'rin egallaydi.

O'zbek jurnalistika fanida «jurnalistik mahorat» tushunchasiga doir tadqiqotlar XX asr ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. Shu davrga oid ilmiy ishlarda mahorat ko'pincha «kasbiy tayyorgarlik» yoki «professional layoqat» sifatida tushunilgan. Mustaqillik davrida esa, milliy jurnalistikaning yangi vazifalari kontekstida, ushbu tushunchaning mazmuni sezilarli darajada boyidi.

O'zbekiston matbuoti va axborot texnologiyalari tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlarda jurnalistik mahorat milliy matbuotning shakllanish va rivojlanish jarayonida kuzatilgan. Ushbu ishlarda o'zbek jurnalistikasiga xos mahorat andozalari, janriy an'analar va uslubiy xususiyatlar tahlil etilgan. Zamonaviy tadqiqotchilar esa globallashuv sharoitida milliy jurnalistik mahoratni rivojlantirishning dolzarb masalalariga diqqat qaratmoqda.

Xulosa o'rnida aytish joiz, «jurnalistik mahorat» - ko'p qirrali, tarixan rivojlanayotgan va ilmiy jihatdan murakkab tushuncha. Uning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish nafaqat teoretik, balki amaliy ahamiyatga ega: jurnalist tayyorlashning zamonaviy tizimini takomillashtirish, kasbiy standartlarni ishlab chiqish va mediata'lim sifatini oshirish uchun mustahkam ilmiy poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шредингер Э. Что такое жизнь? Физический аспект живой клетки.
2. — МоскваИжевск: НИЦ «Регулярная и хаотическая динамика», 2002. 92 с.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд (Е–М) / Таҳрир
4. ҳайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 562 // <https://izoh.uz/word/mahorat>
5. Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. Толковый словарь русского языка: 80
6. 000 слов и фразеологических выражений. – 4-е изд., М.: ООО «А ТЕМП», 2006. – С. 344.
7. Новая философская энциклопедия: В 4 тт. / Под ред. В.С. Стёпина.
8. М.: Мысль, 2010.
9. Merriam-Webster's Collegiate Dictionary. 11th Edition. – Springfield,
10. MA: Merriam-Webster, Inc., 2003.
11. <https://www.oed.com/>
12. W.G.Bleyer. Newspaper Writing and Editing. Houghton Mifflin
13. Company (Бостон, Нью-Йорк, Чикаго), 1913 // <https://www.nytimes.com/1913/12/07/archives/rules-for-journalists-newspaper-writing-and-editing-by-willard.html>
14. Walter Williams, Frank L. Martin. The Practice of Journalism: A Treatise
15. on Newspaper Making. Missouri,
16. Дзялошинский И.М. Методы деятельности СМИ в условиях
17. становления гражданского общества. М., 2006. — 185 с.; Лазутина Г. В. Основы творческой деятельности журналиста. – М.: Аспект Пресс. Стр. 240.
18. Лазутина, Г. В. Жанры журналистского творчества : учебное
19. пособие / Г. В. Лазутина, С. С. Распопова. – Москва : Аспект Пресс, 2012. – 320 с
20. [Waisbord S.](#) Reinventing Professionalism: Journalism and News in
21. Global Perspective. Polity Press, 2013. —224 p.
22. [Waisbord S.](#) Reinventing Professionalism: Journalism and News in
23. Global Perspective. Polity Press, 2013. —224 p.

24. Рэндалл Д. Универсальный журналист. СПб 1999. Национальный
25. Институт прессы, 2000 // <https://evartist.narod.ru/text12/38.htm> ., Колесниченко А.В. Практическая журналистика. Учебное пособие. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 2008., Колесниченко, А. В. Настольная книга журналиста / А. В. Колесниченко. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2025. — 341 с.
26. «Профессиональное мастерство работника газеты», написанная В.
27. Д. Пельтом и Т. В. Кузнецовой, издательством Московского университета, 1980. — 148 с.
28. Тертычный А.А. Жанры периодической печати. — М.: Аспект
29. Пресс, 2000. — 312 с., Ким М.Н.
30. Технология создания журналистского произведения. — СПб.: Изд-во
31. Михайлова В.А., 2001. — 320 с.

